

3. Горонович С.Н. и др. «Классификация объектов разработки нефти и газа для применения технологий строительства горизонтальных скважин в режиме депрессии на гибких трубах и схемы их аппаратного обеспечения» Oil Gas Журнал – 1997-№ 5.-С 17-27.
4. Zhapbasbayev, U.K., Assilbekov, B.K., Kabdolov, S.Z., Khairov, G.B. Modeling of Reservoir Process Using the Method of Radial Drilling //Drilling. Oil Gas, Semiannual. – Poland, Krakow, 2007. – Vol. 24, №1. – P. 328.
5. Raximov A.K., Aminov A.M., Raximov A.A. «Burg'ilash muhandislar uchun spravochnik», Toshkyent, Voris-Nashriyoti- 2008.
6. Сулейманов А.Б., Карапетов К.А., Яшин А.С. Техника и технология капитального ремонта скважин. М.: Недра,-316 стр.
7. Нифантов В.И. «Технология горизонтального бурения на депрессии с применением установки гибких шланг» М.: «Нефтегаз» - 2004 - С.187-194.

EKOLOGIK MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Aliyeva Mahfuza Abdujabborovna

Angren Universiteti biologiya fanio'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ekologik madaniyat tushunchasi, mohiyati, uning shakllanish shart-sharoitlari borasida fikr va mulohazalar keltirilgan. Turli tadqiqotchilarning ekologik madaniyat va uni shakllantirishga doir olib borgan izlanish natijalari va mulohazalari tahliliy bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik ta'lim, ekologik qadriyat, ekologik faoliyat, ilmiy-kognitiv munosabat, ruhiy-axloqiy munosabat, amaliy-faol munosabat, dinamik muvozanat, ibtidoiy madaniyatlar,

Maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni murakkab va nozik jarayon bo'lib, ko'p jihatdan o'quvchilarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. U insonning tabiiy va ijtimoiy muhiti haqidagi ruhiy va aqliy tarbiyasi birligi asosida atrof-muhitga, ozodalikka, sog'lom turmush tarziga nisbatan ilmiy-kognitiv, ruhiy-axloqiy, amaliy-faol munosabatni shakllantirishga qaratilgan. Chunki faqat ekologik bilimli odamgina ekologik muammolarni ko'ra oladi va ularni bartaraf etishni to'g'ri tashkil qiladi hamda unda faol ishtirokchiga aylanadi [1, 2].

O'smirning atrof-muhitga munosabati ko'p jihatdan tabiatning mafkuraviy konsepsiyasining me'yoriy tomonlari unda shakllantirilgan qadriyatlar tizimi bilan qanchalik o'zaro uzviy bog'langanligi bilan belgilanadi. O'quvchining atrof-muhitga bo'lgan munosabati darajasi jamiyatdagi ustuvor qadriyatlar, tabiatga munosabatning ijtimoiy ahamiyatga ega normalari va qoidalari, tashqi tomondan berilgan ekologik ideallarning o'quvchilar tomonidan qanchalik darajada idrok etilishi bilan belgilanadi. Tashqi tomondan berilgan normalar va qoidalarining shaxsning ichki olamiga qabul qilinishi bir qator omillar va shartlar bilan belgilanadi. Ular orasida o'smirning ijtimoiy o'zaro munosabatlar tizimiga o'z faoliyati bilan astoydil qo'shilishi, ruhiy-irodaviy va boshqa individual xususiyatlari muhim o'rin tutadi [3].

Odamlar tabiat bilan muloqot qilish, uning qonuniyatlarini anglash jarayonida asta-sekin o'zini tutish normalari va qoidalarini o'rnatib kelgan va tabiatni buzish bilan inson o'z kelajagini buzishi mumkinligini tushunib yetgan. Ming yillar davomida xalq an'analari yashash joyini va Yerdagi barcha hayotiy omillarni saqlashga qaratilgan. Tabiat va uni asrash azaldan turli xalqlar ijodida muhim o'rin egallagan. To'plangan bilim va ko'nikmalar avloddan-avlodga o'tib, yerga, vatanga muhabbat, uni asrab-avaylash zarurati tarbiyalanib kelgan.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida rivojlangan dunyodagi ekologik vaziyat odamlarning ekologik madaniyatining darajasining pasayishi bilan proporsional holda o'zgardi, aniqroq ifodalaganda, ekologik madaniyatni rivojlanishi fan-texnika, turmush tarzining sivilizatsiyasidan ortda qolib ketdi. Ko'pchilik olimlar, yosh avlodda ekologik madaniyatni

tarbiyalash "inson-tabiat" munosabatlaridagi yo'qolgan muvozanat va uyg'unlikni tiklashga yordam beradi deb hisoblaydi [4, 5].

Ekologik madaniyatni tarbiyalash jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ko'p qo'llaniladigan "madaniyat", "ekologik madaniyat", "ekologik ta'lim" kabi tushunchalar mazmuniga alohida e'tibor qaratish lozim. Faylasuflar, madaniyatshunoslar, psixologlar, o'qituvchilar, ekologlar ekologik madaniyatning roli haqida ma'lum tushunchalarni ishlab chiqishgan. Sivilizatsiyalar siljishi va sayyoraviy o'zgarishlar bosqichida aynan ekologik madaniyat sayyorani, butun insoniyatni qutqarib, rivojlanishning yangi sifat bosqichiga olib chiqa oladigan najot ekanligi har bir shaxsning ongida mustahkam o'rnatilishga erishish talab etiladi. Ekologik madaniyat tushunchasiga, uni umumiy madaniyat tushunchasiga aylantirish imkonini beradigan sifatlar kiritila boshlandi. Bu jarayon o'z ichida shaxsni tarbiyalash va uni ijtimoiy-madaniy shaxs sifatida shakllantirish bosqichlarini o'z ichiga oladi [6, 7]

Ekologik madaniyat - bu inson hayotining sohasi bo'lib, u yerda ekologik qiyinchiliklarga javob topish kerak, chunki u hayotiy ma'no yoki umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati sifati doimo u tashuvchisi bo'lgan madaniyat darajasini aks ettiradi. Ekologik madaniyat insonning ekologik faoliyatni to'g'ri amalga oshirish qobiliyatining yuqori darajasini nazarda tutadi. Ekologik madaniyatning o'zagini jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning umuminsoniy maqsadlari, ekologik yo'nalishlarni, umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash, shuningdek, ularni idrok etish va ularga erishishning tarixan belgilangan usullari tashkil etadi [8, 9].

K.I.Shilin "Madaniyat insoniyat mavjudligining eng keng sohasi bo'lib, uning insoniyatning yangi ekologik vazifalariga muvofiq ongli ravishda o'zgarishi, butun ekologik munosabatlar tizimini o'zgartirishda burilish nuqtasini yaratadi", deb hisoblaydi [10]. Uning asarlarida ekologik madaniyatning ijtimoiy - falsafiy yo'nalishi va rivojlanish yo'llari yoritilib, inson mavjudligining barcha sohalari va uning tabiat bilan munosabatlari madaniyat doirasida amalga oshishi lozimligi ta'kidlanadi. "Har bir shaxs va umuman jamiyatni inson va tabiat o'rtasidagi dinamik muvozanatni saqlash, tiklash va saqlashga yo'naltiradigan, maxsus yo'naltirilgan yangi turdagi ekologik madaniyatni yaratish zarur" - deydi K.I.Shilin o'z asarlarida [10; 88-b.].

Shaxsning madaniy darajasi, birinchi navbatda, o'z shaxsiyati prizmasi orqali, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish o'lchovi bilan belgilanadi. Sivilizatsiyaning umumiy mahsuli sifatida jamiyat madaniyati va shaxs madaniyati o'rtasida farq mavjud.

"Madaniyat" tushunchasi, birinchi navbatda, jamoada shakllangan munosabatlar darajasi, an'analar, qadriyatlar, odamlar uchun majburiy-odatiy darajaga aylangan xatti-harakatlar, me'yorlar va namunalarini qamrab olishi bilan ham muhim ahamiyatga ega. Madaniyat madaniy qadriyatlar va xulq-atvor shakllarining ijtimoiy tajribasini uzatish shakli sifatida namoyon bo'ladi. Inson hayotining alohida sohalarida sodir bo'ladigan barcha o'zgarishlar (iqtisodiy, siyosiy) muayyan jamoaning umumiy madaniy darajasi bilan belgilanadi. Madaniyat - bu shaxs va jamiyat ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishning hal qiluvchi sharti, xalqning o'ziga xosligini tasdiqlash shakli va millat ruhiy salomatligining asosi, inson va jamiyat rivojlanishining insonparvarlik yo'nalishi va sivilizatsiya mezoni hisoblanadi.

Madaniyat tushunchasi mohiyatini aniqlash maqsadida, turli adabiy manbalarni tahlil qilish, uning murakkab, fanlararo, umumiy uslubiy tushuncha ekanligini ko'rsatadi.

"Madaniyat" tushunchasi birinchi marta nemis huquqshunosi S.Pufendorf asarlarida paydo bo'lgan. U buni ijtimoiy shaxs faoliyati natijalarini belgilash uchun ishlatgan. Madaniyat deganda inson va uning faoliyati tabiatning yovvoyi unsurlariga, uning qorong'i, jilovsiz kuchlariga qarshiligi tushunilgan. "Madaniyat" tushunchasining "klassik" ta'rifi ingliz antropologi E.Teylorga tegishli bo'lib, uning "Ibtidoiy madaniyatlar" kitobida keltirilgan. Teylarning fikricha, madaniyat "bir butun bilim, e'tiqod, san'at, axloq, qonunlar, urf-odatlardan iborat".

Madaniyat odamlarning hayotini moslashtirish va tashkil etish usuli sifatida ularning bir-

biriga va tabiiy muhitga bo'lgan munosabatlarining eng muhim ko'rsatkichidir. Insoniyatning omon qolishi ko'p jihatdan o'ziga xos milliy madaniyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan jahon madaniyatining shakllanishiga bog'liq. Madaniyatlarning bunday birligi uchun asos ekologik-gumanistik qadriyatlar va jamiyatning barqaror rivojlanishi g'oyalari bo'lishi mumkin. N.Z.Chavchavadze ta'kidlaganidek, "madaniyat - bu odamlar tomonidan tan olingan qadriyatlar mujassamlangan va amalga oshiriladigan barcha narsalarning birligi".

"Madaniyat" toifasi, shuningdek, faylasuflar va psixologlar tomonidan inson hayotini tashkil etish va rivojlantirishning o'ziga xos usuli sifatida ko'rib chiqiladi, xususan, odamlarning tabiatga, o'zaro va o'ziga bo'lgan munosabatlari yig'indisida ifodalanadi. A. Shvaytser "Madaniyat optimistik - axloqiy dunyoqarash mahsuli", deb yozadi.

Rus tilining izohli lug'atida talqin etilishicha "madaniyat" tushunchasi tarixiy jihatdan shakllanib kelgan tushuncha bo'lib, uning darajasi jamiyat taraqqiyoti, insonning ijodiy imkoniyatlari, qobiliyatlari odamlarning hayot faoliyatini tashkil etishning turlari, shakllarida, ularning munosabatlarida, shuningdek ular yaratadigan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda ifodalanadi.

Umumiy madaniyat - bu shaxsning kasbiy faoliyatida amalga oshiriladigan ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy xususiyatlarining yetukligi va rivojlanishining yig'indisi bo'lib, o'z ichida umumiy madaniyat ikki darajadan iborat: ichki, ma'naviy madaniyat va tashqi madaniyat.

Ichki madaniyat - bu insonning ma'naviy qadriyatlari: uning his-tuyg'ulari, bilimlari, ideallari, e'tiqodlari, axloqiy tamoyillari va qarashlari, sha'ni va o'zini o'zi qadrlash haqidagi g'oyalarini o'z ichiga olsa, tashqi madaniyat - muloqot va faoliyatda shaxsning ma'naviy dunyosini namoyon qilish usullarini qamrab oladi.

"Madaniyat" tushunchasining turli xil ta'riflariga qaramay, uning shakllarida ekologik madaniyatni tarbiyalash jarayoni uchun dolzarb bo'lgan jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- madaniyat - qadriyatlar, xulq-atvor namunalariining ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish shakli;

- madaniyat - jamiyat taraqqiyotining tarixan belgilangan darajasi, shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari;

- madaniyat inson hayotini tashkil etish va rivojlantirish usuli sifatida, xususan, odamlarning tabiatga, bir-biriga va o'ziga bo'lgan munosabatlari yig'indisi.

Shaxs umumiy madaniyatining majburiy tarkibiy qismi uning ekologik madaniyati insonning tabiat bilan munosabatlari yig'indisidir.

Ekologik madaniyatning kelib chiqishi xalqning ko'p asrlik tajribasidan, o'z yurtining tabiatiga va tabiiy boyliklariga g'amxo'rlik qilish an'analaridan kelib chiqadi. Qadimda ajdodlarimiz tabiatni yaxshi bilgan, tirik organizmlar va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarni o'rgangan va o'zlari uchun yangiliklar kashf qilgan. Ular tabiat ruhlariga sig'ingan va shu bilan birga u bilan uzviy bog'liqligini anglab, o'zlarini uning bir qismi sifatida his qilgan. Odamlar hali savodsiz va yozmagan bo'lsa-da, tabiat kitobini o'qib, to'plangan bilimlarini farzandlariga yetkazib borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Денисов, В.Я. Экологическое воспитание молодежи [Электронный ресурс] / В.Я.Денисов//Успехи современного естествознания. - 2006. - №4. -С.40-41. - Режим доступа: <http://elibrary.ru/download/59379098.pdf> (дата обращения: 20.10.2010).
2. Лаптева, И.С. Воспитание экологической культуры подростков / И.С. Лаптева //Биология в школе. - 1997. - № 4. - С.62-66.
3. Ананьев, Б.Г. О проблемах современного человекознания/ Б.Г.Ананьев. - М.: Наука, 1977. - 380 с.
4. Барышникова, Г.Б. К вопросу о технологии воспитания экологической культуры учащихся младших классов /Г.Б. Барышникова. -М., 1998.-7 с.
5. Боев, Н.Я. Личностно-ориентированное образование / Н.Я. Боев, И.В.Волкова // Педагогика. - 2004. - №6. - С.23.
6. Алексеев, С.В. Экология: наука и область образования: методические рекомендации /

С.В. Алексеев. — СПб., 1994. — 55с.

7. Бердяев, Н.А. О культуре /Н.А.Бердяев//Хрестоматия по культурологии / под ред. А.А. Рудигина. - М.: Центр, 1998. - С.81-104.

8. Барышникова, Г.Б. К вопросу о технологии воспитания экологической культуры учащихся младших классов /Г.Б. Барышникова. -М., 1998.-7 с.

9. Xajievna, S. S. (2023). Kimyoni o'qitishda innovatsion yondashuvdan foydalanish. *Science and innovation*, 2(Special Issue 7), 114-117.

10. Formanova, S. B. (2021). Application of Pedagogical Technologies to the Topics of the Metals Department. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 5499-5509.

MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING BIR USULI HAQIDA

Bekmatov Sh - Ipak yo'li innovasiyalar universiteti iqtisodiyot va amaliy matematika kefedrasi dotsenti, f.-m. f.n.

Abduganieva Yu - I.Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali katta o'qituvchisi

Annotatsiya: geometrik masalalarni yechishda vektor metodi so'ngi paytlarda yetakchi metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada vektor metodning amaliy tadbirlariga katta e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: geometrik masalalar, vektor metod, masalani vektor tilida ifodalash

Professional ta'limda matematika fanini o'qitishda masalalar yechishga katta e'tibor qaratilishi va ular bilimlarining samaradorli(sifatli), asosan, o'quvchilarning masalalarni mustaqil yechishiga qaratilishiga katta e'tibor berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ko'pchilik abiturentlar stereometriyaga oid masalalarni yechishga qiynalishadi.bunday masalalarni yechishda vektorlar algebra metodini qo'llashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda stereometriya masalalarini yechish yoqasida aytilgan metodni tadbir etilsa katta imkoniyatlarga ega bo'lamiz.

Geometrik masalalarni yechishning vektor metodi so'ngi paytlarda yetakchi metodlardan biri hisoblanadi. U o'quvchilar va talabalar uchun egallanishi qiyin bo'lgan metodlardan biridir. Bu holatni bartaraf etishning yo'llaridan biri vektorlar algebriyasi elementlaridan kerakli darajadagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarurdir.

Stereometrik masalalarni yechishda an'anaviy metodning qo'llanilishi bizni yetarlicha qiyinchiliklarga olib keladi, ya'ni murakkab trigonometrik hisoblashlar, aniq geometrik yasashlar va hisoblashlar bilan bog'liq bo'lib qolgan turli xil vaziyatlardir. Bunday vaziyatlardan chetlab o'tishga vektorlar algebrasining qo'llanilishi katta imkoniyat yaratadi.

O'quvchilarni yuqorida takidlangan masalalarni yechishda, xususan nuqtalar to'plamini topishga o'rgatish hamma vaqt ham o'qitish jarayonining eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi va shunday bo'lib qolmoqda.

Ta'kidlab o'tish zarurki, stereometrik masalalarni yechishda vektor metodning tadbirlariga va qo'llashga o'quvchilarning qiziqishi tanlangan mavzuning izohli dolzarbligining takidlanishidir.

Geometrik masalalarni yechishda vektor metodining tadbirlariga bag'ishlangan bir qator ishlarni ([1],[2],[3],[4],[5],[6]) o'rganish ularda vektorlar algebrasining qo'llanishiga doir masalalar juda ham kam sonli ekanligini ko'rsatadi.

Shuning uchun bu ilmiy uslubiy ishni bajarishdan maqsadimiz bu kamchiliklarni to'ldirish va bu bilan bog'liq ba'zi bir mulohazalarimizni e'tiboringizga yetkazishdan iborat.

Odatda vektor metodni qo'llab yechiladigan aksariyat masalalar shartida foydalanish lozim bo'lgan vektorlar oshkor holda ko'rsatilmagan bo'ladi. Shuning uchun bunday masalalarni yechishda vektor algebriyasini qo'llash imkoniyatini yuzaga chiqarish uchun berilgan masala shartini vektor tilida ifodalay olish malakasiga ega bo'lish juda muhim. Berilgan masala shartini vektor tilida ifodalashni, bu masalaning vektor modeli deb qarash mumkin.